ManpowerGroup tashkilotining tadqiqotida⁷ dunyo bo'yicha malakali kadrlar yetishmovchiligi muammosi yoritilgan bo'lib, bu muammo yosh avlod vakillarini to'g'ri motivatsiyalash va ularni uzoq muddat saqlab qolish zaruratini yanada kuchaytiradi. Bu xulosa bizning tadqiqotimizning amaliy ahamiyatini, ya'ni Z-avlodni samarali boshqarish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishning dolzarbligini yanada asoslaydi.

Mahalliy tadqiqotchilardan Sitara Umarova va Mahtob Sharifova o'zlarining qiyosiy-tahliliy maqolasida⁸ avlodlar nazariyasini, jumladan, beybi-bumerlar, X, Y va Z-avlodlarini, ularning davr ruhi, ijtimoiy sharoit, texnologik imkoniyatlar va tarbiya muhitidan shakllanishi nuqtayi nazaridan o'rganadilar hamda avlodlar o'rtasidagi bog'liqlik va davomiylikning muhimligini ta'kidlaydilar. Ushbu ish bizning tadqiqotimiz uchun muhim nazariy zamin yaratadi va O'zbekiston ilmiy muhitida ham avlodlar mavzusi dolzarb tadqiqot yo'nalishiga aylanib borayotganidan dalolat beradi. Shu bilan birga, ta'kidlash joizki, mazkur ish ko'proq umumnazariy xususiyatga

1 Twenge J. (2017). iGen: Why Today's Super-Connected Kids Are Growing Up Less Rebellious. New York.

2 Seemiller C., Grace M. (2016). Generation Z Goes to College. Jossey-Bass.

3 Deloitte. (2020). Global Millennial and Gen Z Survey.

4 Gursoy D., Chi C., Karadag E. (2013). Generational differences in work values. International Journal of Hospitality Management.

5 Williams K., Page R. (2011). Marketing to the Generations. Journal of Behavioral Studies.

6 Kowske B., Rasch R., Wiley J. (2010). Millennials' Attitude Problem. Journal of Business and Psychology.

7 ManpowerGroup. (2019). Talent Shortage Survey Report.

8 Umarova S., Sharifova M. (2026). Avlodlar nazariyalari haqidagi mulohazalarning nazariy tahlili: baby boomerlar, X, Y, Z avlodlari. "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali, 4(4), 10-12. <https://doi.org/10.5281/zenodo.19499874>



ega bo'lib, Z-avlodning mehnat motivatsiyasiga oid amaliy jihatlarni alohida tadqiq etmaydi — aynan mana shu bo'shliqni to'ldirish mazkur maqolaning vazifalaridan biri hisoblanadi.

Yuqorida keltirilgan xorijiy va mahalliy tadqiqotlarni umumlashtirib aytish mumkinki, Z-avlod xususiyatlari va ularni motivatsiyalash masalasi xalqaro miqyosda yetarlicha chuqur o'rganilgan bo'lsa-da, O'zbekiston sharoitida, xususan, mahalliy kichik va o'rta kompaniyalardagi amaliyot misolida bu mavzu hali to'la yoritilmagan. Mazkur maqola aynan shu bo'shliqni qisman to'ldirishga, ya'ni xalqaro nazariy yondashuvlarni mahalliy empirik ma'lumotlar bilan boyitishga qaratilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda ilmiy tahlil, taqqoslash va umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Shuningdek, tadqiqotning empirik qismini boyitish maqsadida kichik hajmdagi so'rovnoma o'tkazildi.

So'rovnoma Z-avlod vakillari orasida ijtimoiy tarmoqlar orqali tashkil etildi. Unda turli yoshdagi 20 ta respondent, asosan, 18–28 yosh oralig'idagi ishtirokchilar qatnashdi. So'rovnoma rasmiy platforma orqali emas, balki yozishmalar orqali savol-javob shaklida o'tkazildi.

Respondentlarga quyidagi yo'nalishlarda savollar berildi:

- ish joyida motivatsiya omillari;
- ish va shaxsiy hayot muvozanati;
- masofaviy ishlashga munosabat;
- ish joyida texnologiyalarning ahamiyati.

Olingan javoblar umumlashtirilib, tahlil qilindi va Z-avlod xodimlarini motivatsiyalash bilan bog'liq muammolarni aniqlashda foydalanildi.


TAHLIL VA NATIJALAR

O'tkazilgan kichik hajmdagi so'rovnoma natijalariga ko'ra, Z-avlod vakillarining ish faoliyatidagi asosiy motivatsiya omillari aniqlab olindi. So'rovda respondentlarga "Siz uchun ishlashga asosiy motivatsiya nima?" degan savol berildi.

Natijalarga ko'ra, eng yuqori ko'rsatkich jamoa va ish muhiti (13 ta javob) hamda tajriba orttirish (12 ta javob) omillariga to'g'ri keldi. Shuningdek, oylik maosh (11 ta javob) va ishga qiziqish (10 ta javob) ham muhim motivatsion omillar sifatida qayd etildi.

Boshqa omillar orasida bonuslar (3 ta), ish joyi masofasining yaqinligi (3 ta), masofaviy ishlash imkoniyati (2 ta), aqliy mehnat (hammasi) va jismoniy mehnatga tayyorlik (2 tadan tashqari qolganlari ham moddiy erkinlik uchun jismoniy mehnatga tayyor) kabi javoblar ham uchradi.

Shuningdek, respondentlar tomonidan qo'shimcha ravishda quyidagi omillar ham qayd etildi: o'rganish imkoniyati (3 ta), oilaviy sharoit va mas'uliyat (2 ta), korxona obro'si (2 ta), shuningdek, maqtovlar, aniq ish rejimi, ish va shaxsiy hayot muvozanati, karyera uchun ahamiyati, o'zini namoyon qilish imkoniyati kabi omillar (1 tadan) qayd etildi.



1-rasm. Z-avlod vakillarining ish faoliyatidagi asosiy motivatsiya omillari⁹

9 Manba: Mualliflar tomonidan o'tkazilgan so'rovnoma natijalari asosida tuzilgan.



Natijalar shuni ko'rsatadiki, Z-avlod vakillari uchun moddiy omillar bilan bir qatorda ijtimoiy muhit, rivojlanish va o'zini namoyon qilish imkoniyatlari ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Avvalo, avlodlar nazariyasiga to'xtalib o'tadigan bo'lsak, hozirgi kunda avlodlar tug'ilgan yillariga ko'ra turli guruhlariga ajratilmoqda. Bunday avlodlar ketma-ketligi quyidagicha:

Eng Buyuk Avlod (The Greatest Generation). Bu avlod vakillari 1901–1927-yillarda tug'ilgan avlodlar hisoblanadi.

Tinch Avlod (The Silent Generation). Bu guruhga 1928–1945-yillar oralig'ida tug'ilgan odamlar kiradi.

Beybi-bumerlar (Baby Boom Generation). Bu avlod vakillari 1946–1964-yillarda tug'ilgan insonlar hisoblanadi.

X-avlod (Generation X). 1965–1980-yillar oralig'ida tug'ilgan odamlar mana shu avlod vakillari guruhini tashkil etadi.

Millenniallar (Millennial Generation). Bu avlod vakillari 1981–1996-yillar oralig'ida tug'ilgan insonlar hisoblanadi.

Z-avlod (Generation Z). Bu avlod vakillari esa 1997–2010-yillar oralig'ida tug'ilgan insonlardan tashkil topadi.

Alfa-avlod (Generation Alpha). 2010–2024-yillarda tug'ilgan insonlar esa Alfa-avlod hisoblanadi.¹⁰

Umumiy qaraydigan bo'lsak, bu avlodlarga bo'linish nazariyasi va ularning tug'ilgan yillari oralig'i turli manbalarda turlicha ko'rsatilgan, shuning uchun biz eng ko'p uchraydigan yillar oralig'ini muhim deb hisoblaymiz. Bu avlod vakillari nafaqat tug'ilgan yillari, balki o'zlarining dunyoqarashlari, yashayotgan va ulg'aygan yillariga ko'ra ancha xususiyatlari jihatidan farq qiladi. Masalan, ko'radigan bo'lsak, Tinch Avlod vakillari Ikkinchi jahon urushi yillarida yashagan va urush azoblarini, qahatchilik, ocharchilik kabi yillarni o'tkazishgan. Ular xarakterida esa sokinlik, sabrlilik va mehnatsevarlik ustunlik qilgan. Ikkinchidan, Beybi-bumerlar esa urushdan keyingi qayta tiklanish, sanoat va iqtisodiy tiklanish yillarida xizmat qilishgan.

Kadrlar siyosati uchun asosiy, muhim va o'rganilish obyekti sifatida Z-avlod vakillarini ko'rishimiz mumkin. Bu avlod vakillari hozirda 16 va 30 yosh oralig'ida hisoblanadi va ular mehnat bozorining asosiy ishchi kuchi hamda kelajakda kutilayotgan muhim qismi hisoblanadi. Shunday ekan, ularni va ularning xususiyatlarini o'rganish hozirgi kunda dolzarb mavzulardan biri hisoblanadi. Birinchi navbatda, bu yillarda tug'ilgan avlod vakillarining asosiy xarakteristikasi — bu ularning raqamli dunyoda ulg'ayganlaridir. Bu avlod vakillari o'zidan oldingi X-avlod vakillariga ko'ra raqamli olamda ancha faol va bu olam bilan ko'proq tanishroqdir. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, Z-avlod vakillarining katta qismi hozirgi kunda o'z hayotlarini ijtimoiy tarmoqlarsiz tasavvur eta olishmaydi va televizor ko'rishdan ko'ra ijtimoiy tarmoqlarda ko'proq vaqt o'tkazishadi. Shuningdek, bu insonlar ko'proq individual bo'lib, yuzma-yuz gaplashishdan ko'ra ijtimoiy tarmoqlar orqali muloqot qilishni ma'qul topishadi. Ko'rinib turibdiki, Z-avlod vakillarining eng birinchi muhim xususiyatlaridan biri bu ularning hayotida ijtimoiy tarmoqlarning asosiy o'rin tutishidadir. Ikkinchidan, Z-avlod vakillari yashagan yillarga e'tibor beradigan bo'lsak, ularning eng muhim, ya'ni o'qish va ish yillari COVID-19 pandemiyasi davriga to'g'ri kelmoqda ekan. Demak, ularning maktab va ish faoliyati davri onlayn formatda o'tganini, bolalik va yoshlik yillari biroz kam muloqotda o'tganini ko'rishimiz mumkin. Uchinchidan, bu avlod vakillari davriga kelib, global ekologik muammolarga dunyo miqyosida katta e'tibor berish va ekologiyani asrashga oid ko'plab tadbirlarni amalga oshirish ishlari avj oldi. Fikrimizcha, avlodlar xususiyatlari ularning yashash joylari va muhitiga ko'ra ham keskin farq qiladi. Masalan, Z-avlod vakillarini O'zbekiston miqyosida tahlil qiladigan bo'lsak, bu avlod vakillarining ish va ta'limga oid katta o'zgarishlar davriga to'g'ri kelayotganini ko'rishimiz mumkin. Masalan, aynan maktab davrining 9 yillik ta'limdan 11 yillik ta'lim tizimiga o'tishi, litsey va kollejga oid ko'plab o'zgarishlar bo'lishi bu avlod vakillarining ta'limiga katta ta'sir o'tkazmay qolmadi. Shuningdek, yurtimizda xorijda ta'lim olish imkoniyatlarining oshishi ham mana shu avlod vakillari yillariga to'g'ri keladi. Bunday avlod vakillarining yana bir xususiyati faktlarga ko'ra, O'zbekiston miqyosida, bu insonlar o'zlaridan oldingi X-avloddan farq qilgan holda ko'proq xorijiy tillardan ingliz tilini bilishi mumkinligini ko'ramiz.

Z-avlodga oid bir qator muhim xususiyatlarni dunyo va mamlakatimiz darajasida ham ko'rib chiqdik, endi Z-avlodni ish va ta'lim tizimida motivatsiyalash jarayonida vujudga kelayotgan muammolar bilan tanishib chiqsak. Birinchi o'rinda, Z-avlod vakillari faoliyati davomida ko'p duch keladigan qiyinchilik bu diqqat yetishmovchiligidir. Shuningdek, ularning ko'pchiligi muloqot muammosiga duch kelisharkan. Buning asosiy sababi sifatida ijtimoiy tarmoqlarni va COVID-19 davrining ular ish va ta'lim faoliyatining boshlanish hamda muhim bosqichlariga to'g'ri kelishini ko'rishimiz mumkin, chunki ularning hayotida asosiy o'rinni ijtimoiy tarmoqlar egallaydi va ular uchun og'zaki suhbatdan ko'ra yozishma ma'qulroq ekan. Demak, ular ish jarayonida og'zaki bajariladigan topshiriqlarini bajarishda muammolarga duch kelishining sababi ham shundan bo'lishi mumkin.

10 <https://www.parents.com/parenting/better-parenting/style/generation-names-and-years-a-cheat-sheet-for-parents/>

Z-avlod vakillarining asosiy xususiyatlari va ularning namoyon bo'lish darajasi¹¹

Xususiyatlar	Foiz	Tahlil
Texnologiyalarga qiziqish	95	Texnologiyalar va ijtimoiy tarmoqlarga yuqori darajada qiziqish, raqamli dunyo bilan o'zaro aloqada bo'lish
Onlayn muloqot	90	Onlayn muloqotning ustunligi, yuzma-yuzdan ko'ra ijtimoiy tarmoqlarda faoliyat ko'rsatish
Stress va depressiya	75	Onlayn taqqoslashlar va raqamli dunyo ta'siri
Shaxsiy erkinlik	85	Shaxsiy erkinlikni qadrlash, o'z brendini yaratishga intilish va individualizm
Ijtimoiy mas'uliyat	80	Ijtimoiy mas'uliyat, global muammolarga qiziqish, ekologiya va tenglikka bo'lgan ishtiyoq
Kreativlik va innovatsion yondashuv	88	Innovatsiyalarni qabul qilish, yangi texnologiya kreativ yondashuvlar orqali o'zlarini namoyon etish
Ijtimoiy tarmoqlarda faoliyat	92	Ijtimoiy tarmoqlarda faoliyat, o'zlikni ifoda etish va shaxsiyatni yaratishda texnologiyalardan foydalanish
Masofaviy ta'lim va ishlash	90	Masofaviy ishlash va ta'limni afzal ko'rish, an'anaviy o'qish va ishlash usullaridan ko'ra raqamli vositalarni tanlash

Demak, Z-avlod vakillarining asosiy xususiyatlarini ko'rib chiqdik, endi ularning asosiy ishchi kuchi sifatida namoyon bo'layotganini hisobga olib, kadrlar menejmenti uchun asosiy muammolardan biri, ya'ni bu avlod vakillarini motivatsiyalashga oid duch kelinayotgan muammolar haqida to'xtalib o'tsak. Birinchi navbatda, motivatsiya nima degan savolga javob beradigan bo'lsak, motivatsiya bu insonning maqsadga erishish jarayonidagi ichki va tashqi turtkilar orqali harakat qilishga undovchi jarayon hisoblanadi.¹² Motivatsiyaning o'zi 2 turga bo'linadi, bu ichki va tashqi ko'rinishda bo'lishi mumkin. Ichki motivatsiya bu insonning o'ziga, xarakteriga va qadriyatlariga bog'liq holda bo'lsa, tashqi motivatsiya esa insonga bog'liq bo'lmagan tashqi muhit, ya'ni ishga bog'liq holda shakllanadi. Ichki motivatsiyaga xodimning ishga qiziqishi, aqliy yoki jismoniy mehnatni afzal ko'rishi, ishlashdan maqsadi (pul topish, karyera, tajriba orttirish yoki boshqalar), jismoniy va aqliy imkoniyatlari, sog'lig'i bilan bog'liq holatlari, oilaviy holati, qadriyatlari (dini, madaniy qarashlari va hokazo) kirishi mumkin. Tashqi motivatsiyaga esa ish sharoitlari (kundalik ehtiyojlar uchun shart-sharoitlar mavjudligi, masalan, oshxona, namozxona va boshqalar), maosh va bonuslar, jamoa muhiti, masofaviy ishlash va hokazolar kirishi mumkin. Umumiy olganda, Z-avlod xodimlarining ish jarayonidagi asosiy xususiyatlarini ko'rishimiz ham ularni motivatsiyalashdagi muammolarni chuqurroq anglash va yechim topishga yordam berishi mumkin. Quyida ularning ish jarayonidagi asosiy xususiyatlarini keltirib o'tamiz:¹³

- Texnologiyalarga sodiq va raqamli tafakkur: texnologiya bilan o'sib ulg'aygan Z-avlodi sun'iy intellektga asoslangan vositalar, tezkor xabar almashish va hamkorlikdagi dasturlarni afzal ko'radi, ammo bu ba'zan Z-avlodining ish joyidagi muammolariga, masalan, raqamli ortiqcha yuklanish va yuzma-yuz muloqotning kamayishiga olib kelishi mumkin.

- Ish va shaxsiy hayot muvozanatini ustuvor deb biladi: avvalgi avlodlardan farqli o'laroq, Z-avlodi moslashuvchan jadvallar, ruhiy salomatlikni qo'llab-quvvatlash va maqsadga yo'naltirilgan martabani qadrlaydi. Bu ehtiyojlarni e'tiborsiz qoldirish Z-avlodining bandlik muammolariga, jumladan, yuqori ishdan bo'shatish ko'rsatkichlariga olib kelishi mumkin.

- Tez-tez fikr-mulohaza va e'tirofqa intiladi: Z-avlodi real vaqt rejimida fikr-mulohaza va tasdiqlashni xohlaydi, bu esa an'anaviy yillik sharhlarni samarasiz qiladi. Moslasha olmagan tashkilotlar ish joyida Z-avlodi muammolariga, masalan, ishdan bo'shatish va motivatsiyaning yo'qligiga duch kelishi mumkin.

- Barqarorlikdan ko'ra mazmunli ishni afzal ko'radi: katta avlodlardan farqli o'laroq, Z-avlodi uzoq muddatli ish xavfsizligidan ko'ra missiyaga yo'naltirilgan rollar va martaba o'sishiga ustuvor ahamiyat beradi. Ish joyida Z-avlodi muammolariga duch kelayotgan kompaniyalar iste'dodlarni saqlab qolish uchun rollarni shaxsiy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirishlari kerak.

- Xilma-xillik va inklyuzivlikni qadrlaydi: Z-avlodi ish joylari inklyuziv va axloqiy bo'lishini kutadi. Ushbu muammolarni hal qilmaslik Z-avlodi ish joyidagi muammolarga, masalan, an'anaviy korporativ tuzilmalarga moslashishda qiyinchiliklar yuzaga kelishi mumkin.

- Diqqatni jamlash va ishdan chetlanish tendensiyalari bilan bog'liq muammolar: Z-avlod vakillarida kuzatilishi mumkin bo'lgan ayrim xususiyatlardan biri bu ularning tez-tez ish o'zgartirishga intilish tendensiyasidir.

11 https://www.researchgate.net/publication/391882674_BUGUNGI_Z_AVLOD_O'ZIGA_XOSLIGINING_SOTSIAL_VA_PSIXOLOGIK_XUSUSIYATLARI

12 https://www.researchgate.net/publication/391882674_BUGUNGI_Z_AVLOD_O'ZIGA_XOSLIGINING_SOTSIAL_VA_PSIXOLOGIK_XUSUSIYATLARI

13 <https://www.culturemonkey.io/employee-engagement/problems-with-gen-z-in-the-workplace/>



Z-avlodi bilan ishlaydigan bizneslar xodimlarni saqlab qolishni yaxshilash uchun qiziqarli muhitlar va martaba o'sishi imkoniyatlarini yaratishi kerak.

Yuqoridagi Z-avlod xodimlarining asosiy xususiyatlaridan kelib chiqib, an'anaviy mehnat sharoitlarida ular duch kelishi mumkin bo'lgan muammolarni ham ko'rishimiz mumkin:

Aloqa afzalliklari. Z-avlodi an'anaviy ish joyidagi muloqot usullaridan farq qilishi mumkin bo'lgan tezkor xabar almashish va ijtimoiy tarmoqlar kabi raqamli aloqa platformalarini afzal ko'rishga moyil. Bu esa katta yoshdagi avlod vakillari va yuzma-yuz yoki telefon orqali muloqot qilishni afzal ko'radigan hamkasblar o'rtasida uzilish va tushunmovchiliklarni keltirib chiqarishi mumkin.

Ish va hayot muvozanatiga bo'lgan umidlar. Bu guruh a'zolari ish va hayot muvozanatiga hamda shaxsiy farovonlikka ustuvor ahamiyat berishga katta e'tibor berishadi. Ular ish tartiblarida moslashuvchanlikni izlaydilar va dam olish hamda bo'sh vaqtlarini qadrlashadi. Shaxsiy hayotga bo'lgan intilishlarini ish talablari bilan muvozanatlash qiyin bo'lishi mumkin. Bu yoshlar ish bilan bog'liq charchoq va umumiy stressning ta'sirini ko'rishadi va muvozanatliroq ish tuzilmalarini izlashadi.

Karyera o'sishi, ish imkoniyatlari, ish xavfsizligi. Karyera sohasida o'sish va rivojlanishga kuchli istak bilan Z-avlodi ish joyida martaba rivojlanishi va yuksalishi uchun cheklangan imkoniyatlarni ko'rsa, umidsizlikka tushishi mumkin. Ular uzluksiz o'rganish, tadqiqot va ta'limni qadrlashadi va rivojlanish uchun aniq yo'llarni xohlashadi. Ular qanday qilib o'sishi mumkinligi haqida aniq umidlarni qadrlashadi.

An'anaviy ish tuzilmalari. Xodimlarning bu yangi davri ko'pincha ish joyi iyerarxiyasiga boshqacha nuqtayi nazardan qaraydi va ko'proq hamkorlik hamda inklyuziv muhitni afzal ko'rishini mumkin. Ular an'anaviy kompaniyaning yuqori tuzilmalariga qarshi chiqishlari va faol ishtirok etish hamda hissa qo'shish imkoniyatlarini izlashlari mumkin.

Ish beruvchining ruhiy salomatlik haqida xabardorligi. Yuqoridagilardan tashqari, zamonaviy ish muhitining bosimiga dosh berayotgan yosh xodimlar uchun ruhiy salomatlik muhim muammo hisoblanadi. Bundan tashqari, yosh xodimlar o'tirgan ish turmush tarzi va texnologiyalarga tobora ko'proq bog'liqlik tufayli jismoniy salomatlik muammolariga duch kelishlari mumkin.

Ba'zi mutaxassislar ularning xatti-harakatlarini Buyuk retsessiya bilan bog'lashadi; bu davrda ko'plab Z-avlod vakillari hali shakllanish davrida yoki ishchi kuchiga kirishgan edi. Ular retsessiyaning barcha og'irliklarini bevosita boshdan kechirmagan bo'lsalar-da, uning oqibatlarini ularga ta'sir qilgan.

Ushbu muammolarni hal qilish va ularning ruhiy salomatligi hamda jismoniy farovonligini qo'llab-quvvatlash juda muhimdir. Ushbu qiyinchiliklarga qaramay, ushbu xodimlar ko'pincha ijobiy hayotga qarash va yangi nuqtayi nazarlarni olib kelishadi, ish joyiga o'z avlodlari va boshqa har qanday avlod uchun foydali bo'lishi mumkin bo'lgan qimmatli tushunchalarni qo'shadilar.

Darhol qoniqish va qat'iyatlilik jumboqlari. Bir zumda qoniqish davrida tarbiyalangan Z-avlodining tezkor natijalarga intilishi martaba o'sishining murakkab kasbiy rivojlanish jarayoniga duch keladi. Muammo shundaki, doimiy fidoyilik va bosqichma-bosqich o'sish asosida rivojlanadigan muhitda sabr-toqat fazilatini rivojlantirish kerak.

Fikr-mulohaza muammosi va ko'nikmalarni oshirish. Real vaqt rejimida fikr-mulohazalarga yuqori ehtiyoj Z-avlodining o'ziga xos xususiyati hisoblanadi, ammo kechiktirilgan baholashlarni taklif qiladigan ish joylariga duch kelganda, doimiy ravishda malaka oshirish yo'li ular hal qilishi kerak bo'lgan murakkab vazifa sifatida namoyon bo'ladi.

Dinamik sohalaridagi ustozlikdagi bo'shliqlarni bartaraf etish. Z-avlodiga ustozlik qiladigan tez rivojlanayotgan sohalaridagi ish beruvchilar ko'pincha o'zlarini qiyin vaziyatlarda ham yo'naltira oladigan va o'sish trayektoriyasiga ta'sir ko'rsatadigan tajribali ustozlarga intilishlariga sabab bo'lishi mumkin.

Xilma-xillik orzulari va inklyuzivlik haqiqatlari. Z-avlodi xilma-xillik va inklyuzivlikni qo'llab-quvvatlaydi va ularning ish joyi ushbu qadriyatlarni aks ettira olmasa, ularning ishtiroki va motivatsiyasi pasayishi mumkin, bu esa tashkiliy madaniyatni qayta tasavvur qilishni talab qiladi.

Texnologiyalarga bog'liqlik va moslashishdagi qiyinchiliklar. Z-avlodi ko'pincha texnologiyaga juda moyil deb qaralsa-da, ularning texnologiyaga juda bog'liqligi texnologiya cheklangan yoki boshqa tizimlar mavjud bo'lgan muhitga moslashishda qiyinchiliklar tug'dirishi mumkin.

Ambitsiyalarni realistik umidlar bilan muvozanatlash. Shuhratparast shaxslar sifatida Z-avlodi ko'pincha o'zlari uchun yuqori martaba maqsadlarini qo'yadi. Biroq, bu intilishlarni boshlang'ich darajadagi lavozimlarning haqiqati va korporativ zinapoyadan ko'tarilish uchun ketadigan vaqt bilan muvozanatlash, agar samarali boshqarilmasa, kasbiy qoniqish darajasining pasayishiga sabab bo'lishi mumkin.

Maqsadga yo'naltirilgan ishga intilish. Z-avlodining ko'plab xodimlari o'z qadriyatlariga mos keladigan va jamiyatga ijobiy hissa qo'shadigan kompaniyalarda ishlashni ustuvor deb bilishadi. Ular o'z ishlarining maqsadidan uzilgandek his qilganda yoki ish beruvchining qadriyatlari o'z qadriyatlariga bilan mos kelmaydi deb hisoblaganda, bu ishdan qoniqish va motivatsiyaning pasayishiga olib kelishi mumkin.



Moliyaviy savodxonlik va rejalashtirish. Texnologik jihatdan mohir bo'lishlariga qaramay, Z-avlodi byudjet tuzish, tejash va investitsiya qilish kabi muhim moliyaviy savodxonlik ko'nikmalariga ega bo'lmashligi mumkin. Bu sohada tegishli ko'rsatmalar va ta'limsiz, ular o'z moliyaviy mablag'larini samarali boshqarishda qiynalishlari mumkin, ayniqsa, talaba kreditlari, kredit kartalari va byudjet tuzish kabi boshqa moliyaviy majburiyatlarning murakkabliklarini yengib o'tishda.

Chalg'ituvchi narsalarni boshqarish va diqqatni jamlash. Doimiy bildirishnomalar, ijtimoiy tarmoqlardagi yangilanishlar va raqamli chalg'ituvchi omillarga to'la davrda Z-avlod xodimlari ish joyida diqqatni jamlash va unumdorlikni saqlashda qiyinchiliklarga duch kelishlari mumkin. Samarali vaqtni boshqarish strategiyalarini o'rganish va chalg'ituvchi omillarni minimallashtirish uchun intizomni rivojlantirish ularning muvaffaqiyati uchun juda muhim bo'lishi mumkin.

Konstruktiv tanqid bilan kurashish. Z-avlod xodimlari ko'pincha real vaqt rejimida tez-tez fikr-mulohazalarni so'rashadi, ammo ular konstruktiv tanqidni qabul qilishda qiynalishlari mumkin, ayniqsa, an'anaviy korporativ muhitda. Ish beruvchilar tushkunlikka tushmasdan o'sishni rag'batlantirish uchun rag'batlantirishni yaxshilanish sohalari bilan muvozanatlashtirishlari kerak.

Tez martaba o'sishiga umid. Z-avlodining ko'plab xodimlari tezkor lavozim ko'tarilishlari va martaba o'sishini kutishadi, ba'zan esa yetakchilik ko'nikmalarini rivojlantirish uchun zarur bo'lgan vaqt va kuchni kam baholaydilar. Ushbu kutganlarni boshqarish va aniq martaba yo'lini taqdim etish uzoq muddatli saqlash uchun juda muhimdir.

Ish joyidagi sadoqat bilan bog'liq muammolar. Maqsadga yo'naltirilgan ish va martaba moslashuvchanligiga bo'lgan istak tufayli Z-avlodi orasida ish joyini tez-tez almashtirish holatlari kuzatilishi mumkin. Tashkilotlar Z-avlod xodimlarini saqlab qolishda qiyinchiliklarga duch kelishadi va ish joyiga sodiqlikni oshirish uchun qiziqarli imkoniyatlar yaratishlari kerak.

Korporativ odob-axloq qoidalariga moslashish. Kundalik hayotda raqamli madaniyatga asoslangan holda ulg'aygan Z-avlodi rasmiy muloqot, professional kiyim qoidalari va iyerarxik tuzilmalar kabi an'anaviy ish joyidagi odob-axloq qoidalari bilan qiynalishi mumkin. Bu farqni bartaraf etish uchun ham ish beruvchilar, ham xodimlardan aniq talablar va moslashuvchanlik talab etiladi.

Ish haqi bo'yicha real bo'lmagan umidlar. Turmush darajasining oshishi va moliyaviy muammolar tufayli Z-avlod xodimlari boshlang'ich maoshlarining ko'tarilishini kutishlari mumkin, bu ba'zan bozor realliklariga mos kelmaydi. Shaffof ish haqi tuzilmalari va moliyaviy savodxonlik dasturlari ularga uzoq muddatli moliyaviy rejalashtirish va ish haqi o'sishini tushunishga yordam beradi.

Ushbu qiyinchiliklarni tushunish va ularni hal qilish uchun ish amaliyotini moslashtirish tashkilotlarga Z-avlodi uchun yanada qo'llab-quvvatlovchi va qiziqarli muhit yaratishga yordam beradi.

Yuqoridagi kichik so'rovnomadan olingan natijalar Z-avlod vakillarining motivatsiya tizimi an'anaviy qarashlardan farq qilishini ko'rsatadi. Xususan, respondentlarning katta qismi uchun ish joyidagi muhit va jamoa birinchi o'rinda turishi ularning ijtimoiy muhitga bo'lgan yuqori ehtiyojini ko'rsatadi. Bu holat Z-avlod vakillarining o'zini qulay va qo'llab-quvvatlovchi muhitda samaraliroq namoyon etishini tasdiqlaydi.

Shuningdek, tajriba orttirish omilining yuqori o'rinni egallashi ushbu avlod vakillarining o'z ustida ishlash, yangi bilim va ko'nikmalarni egallashga bo'lgan intilishi bilan izohlanadi. Bu esa ularning karyera rivojlanishiga katta ahamiyat berishini ko'rsatadi.

Oylik maosh ham muhim omil sifatida qayd etilgan bo'lsa-da, u birinchi o'rinda emasligi Z-avlod vakillari uchun faqat moddiy rag'bat yetarli emasligini anglatadi. Ular uchun ishning mazmuni, qiziqarliligi va o'zini rivojlantirish imkoniyati ham muhimdir.

Bundan tashqari, masofaviy ishlash, moslashuvchanlik va ish hamda shaxsiy hayot muvozanati kabi omillarning mavjudligi Z-avlod vakillarining zamonaviy ish sharoitlariga bo'lgan talablarini aks ettiradi.

Umuman olganda, mazkur natijalar Z-avlod xodimlarini samarali motivatsiyalash uchun tashkilotlar nafaqat moddiy rag'batlantirishga, balki ijtimoiy muhit, rivojlanish imkoniyatlari va moslashuvchan ish sharoitlarini yaratishga ham e'tibor qaratishlari zarurligini ko'rsatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Z-avlod vakillarini motivatsiyalash zamonaviy kadrlar menejmentining eng dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Ushbu avlod vakillari an'anaviy yondashuvlardan farqli ravishda faqat moddiy rag'batlantirish bilan cheklanib qolmay, balki ish muhitining qulayligi, jamoa bilan munosabatlar, o'zini rivojlantirish va tajriba orttirish imkoniyatlariga ham katta e'tibor qaratadi.

O'tkazilgan so'rovnoma natijalari ham Z-avlod vakillari uchun ish joyidagi ijtimoiy muhit va jamoaning muhimligini, shuningdek, kasbiy rivojlanish va o'z ustida ishlashga bo'lgan intilishning yuqori ekanligini tasdiqladi. Shu bilan birga, oylik maosh va boshqa moddiy omillar ham muhim bo'lsa-da, ular yagona hal qiluvchi omil emasligi aniqlandi.



Tadqiqot natijalariga asoslanib, tashkilotlarga Z-avlod xodimlarini samarali motivatsiyalash uchun quyidagi yo'nalishlarga e'tibor qaratish tavsiya etiladi: moslashuvchan ish sharoitlarini yaratish, ijobiy va qo'llab-quvvatlovchi jamoa muhitini shakllantirish, xodimlarning kasbiy rivojlanishini ta'minlash hamda ularning fikr va tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash.

Umuman olganda, Z-avlod vakillari tashkilotlarga innovatsion yondashuv, kreativ fikrlash va raqamli kompetensiyalar olib kiradi. Shu sababli, ularni to'g'ri motivatsiyalash nafaqat xodim samaradorligini oshiradi, balki tashkilotning uzoq muddatli rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Twenge, J. M. (2017). *iGen: Why Today's Super-Connected Kids Are Growing Up Less Rebellious, More Tolerant, Less Happy — and Completely Unprepared for Adulthood — and What That Means for the Rest of Us*. New York: Atria Books.
2. Seemiller, C., & Grace, M. (2016). *Generation Z Goes to College*. San Francisco: Jossey-Bass.
3. Deloitte. (2020). *The Deloitte Global Millennial Survey 2020: Resilient Generations Hold the Key to Creating a "Better Normal"*. Deloitte Touche Tohmatsu Limited.
4. Gursoy, D., Chi, C. G.-Q., & Karadag, E. (2013). Generational differences in work values and attitudes among frontline and service contact employees. *International Journal of Hospitality Management*, 32, 40–48. <https://doi.org/10.1016/j.ijhm.2012.04.002>
5. Williams, K. C., & Page, R. A. (2011). Marketing to the generations. *Journal of Behavioral Studies in Business*, 3(1), 37–53.
6. Kowske, B. J., Rasch, R., & Wiley, J. W. (2010). Millennials' (lack of) attitude problem: An empirical examination of generational effects on work attitudes. *Journal of Business and Psychology*, 25(2), 265–279. <https://doi.org/10.1007/s10869-010-9171-8>
7. ManpowerGroup. (2019). *2019 Talent Shortage Survey*. ManpowerGroup.
8. Umarova, S. M., & Sharifova, M. M. (2026). Avlodlar nazariyalari haqidagi mulohazalarning nazariy tahlili: baby boomerlar, X, Y, Z avlodlari. *Maktabgacha va maktab ta'limi jurnali*, 4(4), 464–466.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 6/5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>